

Journal of Social Research in Uzbekistan

**IMPROVING THE JUDICIAL AND LEGAL SYSTEM IS ONE OF THE MOST
IMPORTANT CHARACTERISTICS OF A LEGAL DEMOCRATIC STATE**

Gulbahor Usmonovna Orzikulova

*Senior teacher of History and Law
Jizzakh, Uzbekistan*

Ulugbek Botirkulov

*Student of group 111
Academic Lyceum of JDPU
Jizzakh, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: judicial and legal reforms, justice, judicial independence, appeal, digitalization, problems of the electronic court system.

Received: 03.02.26

Accepted: 04.02.26

Published: 05.02.26

Abstract: Improving the judicial and legal system is a key feature of a democratic state governed by the rule of law. Despite extensive reforms implemented in New Uzbekistan, challenges such as inconsistency in judicial practice, delays in case consideration, staff shortages, procedural shortcomings, and threats to judicial independence remain. This article examines these issues and proposes solutions, including ensuring the stability of court decisions, expanding digital justice, strengthening procedural discipline, and enhancing public legal awareness. The proposed measures aim to improve the effectiveness of the judicial system and reinforce the rule of law.

**SUD- HUQUQ SOHASINI TAKOMILLASHTIRISH- HUQUQIY DEMOKRATIK
DAVLATNING ENG MUHIM BELIGISIDIR**

Gulbahor Usmonovna Orziqulova

*Oliy toifali tarix va huquq o'qituvchisi
Jizzax, O'zbekiston*

Ulug'bek Botirkulov

*JDPU akademik litseyi 111-guruh o'quvchisi
Jizzax, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: sud-huquqi islohotlari, odil sudlov, sudylar mustaqilligi, apellatsiya,	Annotatsiya: Sud-huquq tizimini takomillashtirish huquqiy demokratik davlatning
---	--

raqamlashtirish, Elektron
muammolari.

sud tizimini

muhim belgilaridan biridir. Yangi O'zbekistonda sud-huquq sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, sud amaliyotida yagona yondashuvning yetishmasligi, ishlarni ko'rish muddatlarining cho'zilishi, kadrlar yetishmovchiligi, protsessual kamchiliklar va sud mustaqilligiga ta'sir etuvchi omillar saqlanib qolmoqda. Ushbu maqolada mazkur muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish yo'llari sifatida sud qarorlarining barqarorligini ta'minlash, sud tizimini raqamlashtirish, protsessual intizomni kuchaytirish hamda aholi huquqiy savodxonligini oshirish masalalari yoritilgan. Taklif etilgan chora-tadbirlar sud tizimi samaradorligini oshirishga va qonun ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СУДЕБНО-ПРАВОВОЙ СФЕРЫ ЯВЛЯЕТСЯ ОДНИМ ИЗ ВАЖНЕЙШИХ ПРИЗНАКОВ ПРАВОВОГО ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО ГОСУДАРСТВА

Гулбахор Усмоновна Орзикулова

*Преподаватель истории и права высшей категории
Джизак, Узбекистан*

Улугбек Ботиркулов

*Учащийся 111-й группы
Академического лицея ЖДПУ
Джизак, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: судебно-правовые реформы, правосудие, независимость судей, апелляция, цифровизация, проблемы электронной судебной системы.

Аннотация: Совершенствование судебно-правовой системы является важнейшим признаком правового демократического государства. Несмотря на масштабные реформы, проводимые в Новом Узбекистане, в судебной практике сохраняются такие проблемы, как отсутствие единообразия судебных решений, затягивание сроков рассмотрения дел, кадровый дефицит, процессуальные нарушения и факторы, влияющие на независимость судов. В статье анализируются данные проблемы и предлагаются пути их решения, включая обеспечение стабильности судебных решений, развитие электронного правосудия, укрепление процессуальной дисциплины и повышение правовой грамотности населения. Реализация данных мер способствует повышению эффективности судебной системы и укреплению верховенства закона.

Kirish. Bugungi globallashuv va ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida huquq tizimi oldida yangi vazifalar paydo bo'lmoqda. Yangi O'zbekistonda sud- huquq tizimini isloh qilishda keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq, hozirgi kunda ham yechimini kutayotgan muammolar, kamchiliklar yo'q emas. Ushbu ilmiy maqolada sud- huquq tizimidagi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari, uni rivojlantirish omillari keng yoritiladi.

Sud-huquq tizimidagi muammolar sud qarorlarining barqaroligiga bog'liq bo'ladi ayrim hollarda. Chunki ba'zida vaziyatlarda bir xil huquqiy munosabatlarga nisbatan turli sudlar turlicha qarorlar chiqaradi. Bu sud amaliyotida yagona yondashuv yetarli darajada shakllanmagani bilan bog'liq va fuqarolarning sudga bo'lgan ishonchini kamaytiradi. Sud ishlarini ko'rish muddatlarning cho'zilishi, ish hajmining ko'pligi va kadrlar yetishmovchiligi sud jarayonlarini ortiqcha cho'zilishiga sabab bo'ladi. Bu odil sudlarning o'z vaqtida amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Sud hokimiyati mustaqilligi bilan bog'liq muammolar sud ishlariga bevosita yoki bilvosita bosim o'tkazish holatlari uchraydi. Bu sud qarorlarining xolisligiga putir yetkazadi va qonun ustivorligini zaiflashtiradi. Raqamlashtirish va Elektron sud tizimini raqamlashtirish sezilarli darajada rivojlangan bo'lsa-da, texnik nosozliklar, hududiy infratuzilmaning yetarli emasligi va foydalanuvchilarning raqamli savodxonligini pastligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Bu huquqiy madaniyatning pastligi, fuqarolar o'z huquq va majburiyatlarini yetarli darajada bilmasligi sudlarga ortiqcha murojaatlarni keltirib chiqaradi va nizolarni yanada murakkablashtiradi. Shu holatlarni oldini olish uchun ba'zi takliflar ishlab chiqilib, uni takomillashtirish va amaliyotga joriy qilish zarur.

Sud- huquq tizimidagi muammolarni bartaraf etish yo'llari sifatida qo'yidagilar e'tiborga olinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi:

- Oliy sud Plemumi qarorlarining sud amaliyotida bir xilda qo'llanilishini kuchaytirish;
- Sud ishlarini ko'rish muddatlarini qisqartirish;
- Protsessual intizomni ta'minlash;
- Sudlarning mustaqilligini kafolatlovchi huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash;
- Sud tizimini to'liq raqamlashtirish va elektron sudlov imkoniyatlarini kengaytirish;
- Aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot va tushuntirish ishlarni kuchaytirish.

Sud tizimidagi muammolarni bartaraf qilish bilan birga , sud-huquq tizimi faoliyatini yanada yuksaltirish ham muhim vazifa hisoblanadi. Jumladan:

Birinchidan, innovatsion texnologiyalarni joriy etish;

Ikkinchidan, ishlar elektron shakilda yuritish;

Uchinchidan, video konferansiya orqali sud majlislarini o'tkazish imkoniyatini kengaytirish;

To'rtinchidan, sud tizimida su'niy intellekt tizim yordamida huquqiy ishlarni tahlil qilish va sud qarorlarini loyihalashtirish;

Beshinchidan, sud xodimlarini va sudyalarni malakasini oshirish muntazam ravishda malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

Sudlarda ma'ruzalar tayyorlash, monitoring o'tkazish hamda sud tizimi islohotlarini oshirish kerak. Sud xodimlarini elektron hujjatlarni yuritish, ma'lumotlar bazasidan foydalanish qobiliyatini kuchaytirish tizimini mustahkamlash hamda nazorat qilib borish lozim. Hozirgi kunda yurtimizdagi sud ishlarni yuritishda eng avvalo, fuqarolar bilan samarali muloqot va huquqiy savodxonlikni oshirish, ochiq sud amaliyoti tamoyillarini keng joriy etish, undan tashqari, ommaviy axborot vositalar yordamida sud faoliyatiga oid axborotlarni keng yoritib borishga e'tibot qaratilmoqda.

Sud tizimida yana bir jiddiy o'zgarish yuz berdi. Sud qarorlarining yagona amaliyotini shakllantirish va Oliy sud Plenumining qarorlarini barcha sudlar amaliyotida majburiy qo'llashni ta'minlash, sud amaliyotida yuzaga keladigan nizolarni tahlil qilishda yagona metodologik tavsiya ishlab chiqish kerak. (A.Saidov – Sud-huquq islohotlari).

Ijtimoiy –iqtisodiy rivojlanish yagona qonunchilik talablariga moslashgan sud qarorlarni standartlarini yaratish hamda sud tizimni rivojlantirish to'g'risida fuqarolarni takliflarni ko'rib chiqish va ma'qul kelsa qabul qilish kerak. Sud hokimiyatining mustaqilligini kuchaytirishda sudyalardan bevosita va bilvosita bosimni oldini oluvchi huquqiy mexanizmlarni yaratish yoki ularga o'zgartirish kiritish hamda sudyalarni lavozimga tayinlash, ozod etish tartibi shaffof va qonuniy asosida tashkil qilinishi kerak. Bu sud tizimida ichki va tashqi nazoratini optimalashtirish orqali xodimlarning huquqiy himoyasini tashkil qiladi. Sudyalardan muayyan ishlar bo'yicha hisobdor bo'lmaydilar. Sudyalardan daxlsiz hisoblanadi va davlat sudylarni, uni oila a'zolarini xavfsizligini ta'minlaydi. (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 136 –modda)

Sudlar o'z faoliyatidagi asosiy kamchiliklaridan biri - (protsessual) hujjatlarni rasmiylashtirishdagi kamchiliklarda uchraydi va undan tashqari sud ishlarni yuritishda hujjatlarni no'to'g'ri rasmiylashtirishi va ularni kechiktirib topshirilishi yoki elektron tizimga to'liq joylashtirilmasligi sud jarayonini sekinlashtiradi . Bu esa ishlarni qayta ko'rib chiqishga yoki protsessual xatolarga olib kelishi mumkin. Bunday holatlar huquqiy aniqlik tamoyillarga zid bo'lib, fuqarolarni sudga bo'lgan ishonchini pasaytiradi. Shunday bo'lmasligi uchun yangi islohotlar olib borilmoqda. Aksariyat islohotlarda sud tizimni takomillashtirishga oid misol uchun protsessual hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha yagona elektron standartlar joriy qilindi (2022-2026 mo'jalangan taraqqiyyot strategiyasi).

So'nggi yillarda mamlakatimizda sud-huquq tizimi yanada takomillashtirish, fuqaro va tadbirkorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish choralari

kuchaytirish, odil sudlovni samarali ta'minlashda sudyalarning hamjamiyatini ro'lini oshirish bo'yicha bir qator ishlar olib borilmoqda. Amalga oshirilgan ishlar natijasida odil sudlov jarayonida Inson huquqlarini himoya qilish darajasi yangi bosqichga chiqdi. Xususan, nohaq ayblangan 2,3mingga yaqin fuqarolar oqlandi hamda adashib jinoyat yo'lga kirib qolgan va adolatsizlik qurboni bo'lgan shaxslar ham juda ko'p ularni hozirda axloqni tuzatishda sud tomonidan adolatli odil sudlovni amalga oshirishni ko'zda tutadi. Shuning uchun sud faoliyatidagi ishlar juda murakkab va ko'p vaqt oladi, yechilishi qiyin hisoblanadi. (Sud faoliyatini yanda takomillashtirish to'g'risida Prezident farmoni- 6034- son 24.07.2020).

Sud tizmining ahamiyatli jihati shundaki, u jamiyatga ishonch beradi va huquqiy barqarorlik yaratadi va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi. Sudlarning eng yuqorisi bu - Oliy sud bo'lib u chiqargan qaror bajarilishi majburiy hisoblanadi. Oliy sud quyi sudlar ustidan nazorat qilish huquqiga ega. Oliy sud Prezident taqdimiga binoan Oliy Majlis Senati tomonidan 5 yilga saylanadi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023yil tahriri 134-modda

Xulosa. Hozirgi davrda sudlar faoliyatidagi kamchiliklar bartaraf etishga oid jo'da ko'p islohotlar olib borilmoqda. Sud-huquq tizimidagi mavjud muammolarni o'rganish ularni tanqididagi tahlil qilish hamda bartaraf etish bo'yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb vazifalaridan biridir. Shu maqsadda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan izchil sud-huquq islohotlari yangi O'zbekiston sharoitida fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan huquqlarini kafolatlash, sud jarayonlarini tezkor va shaffof qilish hamda jinoyat va fuqarolik ishlari yuzasidan adolatli qarorlar chiqarish imkonini bermoqda. Bunday islohotlar natijasida sud tizimiga bo'lgan ishonch sezilarli darajada ortib borishi, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksalishi, korrupsion omillarni kamayishi va qonun ustuvorligining mustahkamlanishi kutiladi. Zero, adolat-har qanday demokratik davlatning asosiy poydevori bo'lib, uni ta'minlashda samarali sud tizimi muhim o'rin tutadi. Sud korpusini malakasini oshirish, sudyalarning tayinlashda jarayonini shaffof qilish, manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish sud tizimining yanada ishonchli bo'lishi uchun muhim omillardir. Bu jarayonlarda jamoatchilik nazorati ham alohida ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning sud hokimiyatiga bo'lgan ishonchi uning siyosiy va huquqiy barqarorligining muhim ko'rsatkichlaridan biridir.

Umuman olganda, sud tizimidagi islohotlar davlatda huquqiy madaniyatini shakllantirish, fuqarolarning huquqiy faolligini oshirish va demokratiyani mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Kelgusida sud jarayonlarini soddalashtirish, jamoatchilik va media bilan ochiq ishlash, huquqiy savodxonlikni oshirish, sud qarorlarining sifatini yaxshilash hamda inson huquqlarini real himoya qilish kabi vazifalar dolzarbligicha qoladi. Ushbu jarayonlarni amalga oshirilishi sud tizimini yanada samarali adolatli va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan mexanizmga aylantiradi.

Kelajakdagi ilmiy yondashuv va amaliy tajribalarni uyg'unlashtirish sud tizmini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023 y
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'jallangan Taraqqiyot strategiyasi.
3. O'z. Res. Prezidentinig "Sud tizimini yanada takomillashtirish to'g'risi"dagi Farmoni
4. A.X.Saidov "Sud-huquq tizimi islohotlari" T. 2017 y.
5. S.S.Alekseyev "Huquq nazariyasi" T. 2009 y.
- 6 "O'zbekiston Respublikasida sud tizimi to'g'risi" dagi Qonun.
7. Oliy sud Plenumi qarorlari.